



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI BAHOLASHDA KO‘P MEZONLI METODOLOGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH

Butayev Javlonbek Inatillo o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi, PhD.

butayevjavlon@gmail.com

ORCHID: 0000-0003-2745-817X

Annotatsiya. Mazkur tezisda kichik biznes subyektlarida investitsiya loyihalarini baholashda ko‘p mezonli metodologik yondashuvlardan foydalanish zarurligi yoritilgan. Investitsiya loyihalarini baholashda faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga tayanish kichik biznesning real iqtisodiy holatini to‘liq aks ettirmasligi asoslangan. Shu bois investitsiya samaradorligini aniqlashda moliyaviy natijadorlik, risk darajasi, innovatsion salohiyat, ijtimoiy ta‘sir, bozordagi raqobatbardoshlik va institutsional muhitni kompleks baholash maqsadga muvofiq ekani ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, investitsiya loyihasi, ko‘p mezonli baholash, investitsion samaradorlik, risk, innovatsion salohiyat, raqobatbardoshlik.

Bugungi iqtisodiy rivojlanish sharoitida kichik biznes subyektlari mamlakat iqtisodiyotining muhim bo‘g‘ini sifatida maydonga chiqmoqda. Kichik biznes iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etish va hududiy rivojlanishni jadallashtirishda alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining rivojlanishi bevosita ularning investitsiya faoliyati bilan bog‘liqdir.

Investitsiya loyihalari kichik biznes uchun ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, mahsulot sifatini oshirish, xizmat ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish va bozorda mustahkam o‘rin egallash imkonini beradi. Ammo kichik biznes subyektlari ko‘pincha moliyaviy resurslarning cheklanganligi, garov ta‘minotining yetarli emasligi, kredit foiz stavkalarining yuqoriligi, bozor risklarining kuchliligi va boshqaruv tajribasining kamligi kabi muammolarga duch keladi. Shu sababli investitsiya loyihalarini baholashda faqat foyda yoki qoplash muddati kabi oddiy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolish yetarli emas.

An‘anaviy baholash usullarida investitsiya loyihasining moliyaviy samaradorligiga katta e‘tibor qaratiladi. Masalan, sof joriy qiymat, ichki rentabellik me‘yori, rentabellik indeksi va qoplash muddati kabi ko‘rsatkichlar investitsiyaning iqtisodiy foydasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq kichik biznes sharoitida bu ko‘rsatkichlar har doim ham to‘liq xulosa beravermaydi. Chunki ayrim loyihalar qisqa muddatda katta foyda bermasligi mumkin, lekin uzoq muddatda korxonaning

bozordagi mavqeyini mustahkamlashi, yangi ish o‘rinlarini yaratishi yoki innovatsion rivojlanishga xizmat qilishi mumkin.

Shuning uchun kichik biznes subyektlarida investitsiya loyihalarini baholashda ko‘p mezonli yondashuvdan foydalanish zarur. Ko‘p mezonli baholash yondashuvi loyihani bir nechta asosiy yo‘nalish bo‘yicha tahlil qilishni nazarda tutadi. Bunda moliyaviy samaradorlik bilan bir qatorda risk darajasi, ijtimoiy ta‘sir, innovatsionlik, bozor salohiyati, boshqaruv imkoniyatlari va institutsional qo‘llab-quvvatlash omillari ham hisobga olinadi.

Kichik biznes investitsiya loyihalarini ko‘p mezonli baholashning asosiy afzalligi shundaki, u tadbirkorga investitsion qarorni chuqurroq asoslash imkonini beradi. Masalan, loyiha moliyaviy jihatdan foydali bo‘lsa-da, uning risk darajasi yuqori bo‘lishi mumkin. Yoki aksincha, loyiha qisqa muddatda katta daromad bermasligi mumkin, ammo yangi texnologiyani joriy etish orqali kelajakda korxonaga raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Shu bois investitsiya loyihasi baholashda har bir mezon alohida ko‘rib chiqilishi va yakunda umumlashtirilgan xulosa chiqarilishi lozim.



1-rasm. Kichik biznes investitsiya loyihalarini ko‘p mezonli baholash matritsasi¹

Ushbu yuqorida qayd etilgan 1-rasmdagi matritsali mexanizm investitsiya loyihasi bir tomonlama emas, balki har tomonlama baholash imkonini beradi. Moliyaviy blok loyiha daromadlilikini aniqlasa, risk bloki ehtimoliy xavflarni baholaydi. Ijtimoiy blok loyiha orqali yaratiladigan yangi ish o‘rinlari, mahalliy byudjetga tushum va hududiy rivojlanishga qo‘shiladigan hissani ko‘rsatadi. Innovatsion blok loyihaning texnologik yangilanishga qanchalik xizmat qilishini aniqlaydi. Bozor bloki esa mahsulot yoki xizmatga bo‘lgan talab, raqobatchilar holati va eksport imkoniyatlarini baholashga yordam beradi.

Mazkur yondashuv kichik biznes subyektlari uchun amaliy jihatdan qulay hisoblanadi. Chunki u tadbirkorga har bir investitsiya loyihasi oddiy va tushunarli

¹ Muallif tadqiqotlari natijasida tuzilgan.

bloklar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, kredit olish, grant dasturlarida ishtirok etish yoki investor jalb qilish jarayonida bunday ko‘p mezonli baholash natijalari loyiha ishonchligini oshiradi.

Kichik biznes subyektlarida investitsiya loyihalarini baholashda yana bir muhim masala — mezonlar o‘rtasidagi ustuvorlikni aniqlashdir. Masalan, ishlab chiqarish sohasida moliyaviy samaradorlik va texnologik yangilanish muhim bo‘lsa, xizmat ko‘rsatish sohasida mijozlar bazasi, bozor talabi va xizmat sifati ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash sohalarida esa mavsumiylik, xomashyo ta‘minoti va logistika risklari alohida baholanishi lozim.

Shu sababli kichik biznes investitsiya loyihalarini baholashda yagona qolipdagi baholash tizimidan emas, balki tarmoq xususiyatlariga moslashtirilgan yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu esa investitsiya loyihalarining haqiqiy samaradorligini aniqlash, samarasiz loyihalarga mablag‘ yo‘naltirishning oldini olish va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ko‘p mezonli baholash yondashuvining amaliy ahamiyati shundaki, u kichik biznes subyektlarida investitsion qarorlar sifatini oshiradi. Agar tadbirkor loyiha bo‘yicha faqat foydani hisoblab qaror qabul qilsa, risklarni e‘tibordan chetda qoldirishi mumkin. Agar faqat risklardan qo‘rqib loyihadan voz kechsa, innovatsion imkoniyatlarni yo‘qotishi mumkin. Shuning uchun barcha mezonlarni uyg‘unlashtirish investitsiya samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlarida investitsiya loyihalarini baholashda ko‘p mezonli metodologik yondashuvdan foydalanish investitsion qarorlarning aniqligi va asoslanganligini oshiradi. Moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda risk, ijtimoiy ta‘sir, innovatsionlik va bozor salohiyatini hisobga olish investitsiya loyihalarining real samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan, lekin kompleks mezonlarga asoslangan baholash matritsalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. — Toshkent: Moliya, 2003.
2. Karimov N.G‘. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — Toshkent, 2007.
3. Imomov H.H. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. — 188 b.
4. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F., Edmans A. Principles of Corporate Finance. 14th ed. — New York: McGraw Hill, 2023.
5. Sharpe W.F., Alexander G.J., Bailey J.V. Investments. 6th ed. — Upper Saddle River, New Jersey: Prentice Hall, 1999. — 962 p.